

PROFESSIONAL TA'LIMDA MATEMATIKA FANINI KOMPETENSIYAVIY
YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHNI "ISHGA DOIR MASALA" LARDA KO'RSATIB
BERISH.

Ismoilov M.X

Farg'ona Davlat universiteti huzuridagi PKQT va UMO mintaqaviy markazi, "Matematik analiz va differensial tenglamalar" kafedrasi o'qituvchisi.

O'rNova Q.T

Farg'ona Davlat universiteti huzuridagi PKQT va UMO mintaqaviy markazi tinglovchisi, Farg'ona olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyor-lash markazi matematika fani o'qituvchisi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, interaktiv usullar, ishga doir masala, no'anaviy usul, kreativlik.

Xozirgi davrga kelib mamlakatimizda bo'layotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ta'lif-tarbiya sohasida qabul qilingan qonun va qarorlar "Milliy dastur" imizda belgilab berilgan buyuk maqsadlar hozirgi kun oqituvchisini yanada ko'proq mehnat qilishga, izlanishga da'vat etmoqda. Ushbu maqsadlar-ning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamenti hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan bog'liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajodolar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir.

Professional ta'lif jarayonida o'qitiladigan har bir fanning ahamiyati uning tehnika taraqqiyotida, ishlab chiqarish sohasida va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Bu borada matematika ta'limi oldiga yuqori vazifalar qo'yiladi.

Matematika fanini o'qitishda hozirgi kunda professional ta'lif jarayonida interaktiv metodlar, innovatsiyon texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, xamkorlikda o'qitish texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga qiziqish kundan-kun ortib bormoqda. Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgandir.

Bu borada professional ta'lifda matematika fanini o'qitishda yuqorida keltirilgan fikr mulohazalarni "Ishga doir masala"larda ko'rsatib o'tishni lozim topdik. Asosan matematika fanlarida interfaol, no'anaviy usullar bilan misol va masalalarni yechish jarayoni talabalarda kreativlikni, kompetensiyaviy yonda-shuvlikni oshishiga xizmat qiladi, gapimizning tasdig'ini quyidagi masalalarda ko'rib chiqamiz, bu masalalar

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME6 ISSUE-10 (30- October)

tematik TEST lar to'plamidan olinishi ham talabaga ijobiy ta'sir ko'rsatib, e'tiborini tortadi:

1-masala. Muayyan bir ishni usta 20 kunda, shogirdi esa 30 kunda bajaradi. Ular birgalikda ishlasa, bu topshiriqni necha kunda bajarishadi ?

Yechish: Bu masalaga quyidagicha tenglama tuzib yechamiz

$$\frac{1}{20} + \frac{1}{30} = \frac{1}{x}, \quad \frac{1}{x} = \frac{50}{600} = \frac{1}{12}, \quad x = 12. \text{ Javob: } 12 \text{ kunda.}$$

Endi bu masalani yechishda no'ananaaviy usullardan foydalanamiz, ya'ni muayyan ish sifatida 20 va 30 sonlariga bo'linadigan sonni tanlab olamiz misol uchun 900 dona silikat katta hajmli g'isht quyish bo'lsin. Usta va shogird bir kunda nechtadan g'isht quyishini aniqlaymiz, ya'ni usta bir kunda 45 tadan, shogird esa 30 tadan gisht quyar ekan. Ular birgalikda ishlashsa bir kunda 75 dona g'isht quyishsa 900 ta g'ishtni ular $900:75=12$ kunda bajarishadi.

Bu masalada no'ananaaviy usulning mohiyati to'liq ochilmaydi, chunki an'anaviy va no'ananaaviy usullarning teng kuchliligiga guvoh bo'lamiz.

2-masala. Birinchi brigada ishni 24 kunda ,ikkinchisi esa 16 kunda tamomlay oladi. Agar birinchi brigadaga ikkinchi brigada 4 kun yordamlashsa , birinchi brigada ishni necha kunda tamomlay oladi?

Yechish: Masalani yechishda no'ananaaviy usuldan foydalanishimiz uchun, ya'ni muayyan ish sifatida 24 va 16 sonlariga bo'linadigan sonni tanlab olamiz, misol uchun 480 dona katta hajmli quyma tayyorlash bo'lsin. Har ikki brigada bir kunda nechtadan quyma tayyorlashini aniqlaymiz, ya'ni 1-brigada bir kunda 20 tadan, 2-brigada esa 30 tadan quyma tayyorlar ekan. Agar birinchi brigadaga ikkinchi brigada 4 kun yordamlashsa ikkinchi brigada 4 kunda ja'mi 120 ta quyma tayyorlaydi va 360 ta quymani birinchi brigada 18 kunda tayyorlar ekan.

Bu usul masalaga tenglama tuzishni talab etmaydi, tez va sodda holda masalani hal etadi, hamda talabaning qiziqishini ortishiga sabab bo'ladi. Shu ko'rinishda talaba fanni o'zlashtirishni samarali tarzda amalga oshira boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.1996-2003 tematik TEST lar to'plami. Buhoro, 2000 yil.

2. Matematika fnini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati.Boxodirova M.U. Namangan viloyati Uychi tumani 27-maktab matema-tika fani o'qituvchisi. Жамият ва инновациялар -Society and innovations

Special Issue – 03 (2023) / ISSN 2181-1415.